XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 18-avgust VII-24-101-8-0-K/26 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi va oqova xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-bob 46-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6074-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 15-maydagi “Yoqilg‘i-energetika resurslari narxlarini belgilash to‘g‘risida” 243-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2026-yil 4-iyundagi 22-19-10/25-sonli xulosasi va “Surxondaryo suv ta′minoti” aksiyadorlik jamiyatining 2026-yil 5-iyundagi 01-03/256-sonli xati bilan kiritilgan viloyatdagi suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlari (tariflari)ni belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari) 1-ilovaga;

dizel yoqilg‘i bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari) 2-ilovaga;

siqilgan gaz bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Surxondaryo suv ta’minoti” AJ (O‘.Abdulqosimov), tuman (shahar)larda aniq manzilli va muddatli reja-grafik asosida 2026-yil avgust oyida aholi o‘rtasida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari uchun to‘lovlarni onlayn amalga oshirish bo‘yicha turli shakldagi targ‘ibot tadbirlarini tashkil etsin va natijasi yuzasidan 2026-yil 5-sentabrga qadar xalq deputatlari viloyat Kengashiga yozma axborot kiritsin.

4. Viloyat teleradiokompaniyasi (M.Jabborov), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov)ga sohada amalga oshirilayotgan

ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 16-maydagi “Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)ni belgilash to‘g‘risida” VII-9-69-8-0-K/25-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

Kengash raisi **CHORIYEV ABDURAIM RAVSHANOVICH**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 18-avgustdagi
VII-24-101-8-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida taklif etilayotgan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlari (tariflari)

Xizmat turi	**Iste’molchilar**	**O‘lchov birligi**	**Narxi** (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m^3	6 800
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m^3	15 000
	Ulgurji iste’molchilar uchun	1 m^3	18 000
Oqova suv	Aholi uchun	1 m^3	3 250
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m^3	7 000
	Ulgurji iste’molchilar uchun	1 m^3	10 000

Iste’molchilarga QQS 12% qo‘shib yoziladi.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 18-avgustdagi
VII-24-101-8-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Dizel yoqilg‘i bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari)

Xizmat turi	**Iste’molchilar**	**O‘lchov birligi**	**Narxi** (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m^3	86 900
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m^3	97 300
	Ulgurji iste’molchilar uchun	1 m^3	97 300

Iste’molchilarga QQS 12% qo‘shib yoziladi.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 18-avgustdagi
VII-24-101-8-0-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Siqilgan gaz yoqilg‘i bilan transportda tashib yetkazilib beriladigan ichimlik suv narxlari (tariflari)

Xizmat turi	**Iste’molchilar**	**O‘lchov birligi**	**Narxi** (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz)
Ichimlik suvi	Aholi uchun	1 m^3	73 700
	Budjet tashkilotlari uchun	1 m^3	82 500
	Ulgurji iste’molchilar uchun	1 m^3	82 500

Iste’molchilarga QQS 12% qo‘shib yoziladi.